Pedagogikada bo'lajak o'qituvchilar tayyorlashda kasbiy kompetensiya, ta'lim jarayoni, uning natijalariga asosiy e'tiborni qaratish, turli muammoli vaziyatlarda pedagogning harakatlari kabilar M.Aranovskiy, B.Asaafyev, A.V.Barannikov, V.I.Baydenko, D.A.Ivanov, K.G.Mitrofanov, V.D.Shadrikov, A.Vernia, J.Dovns, R.Marselles, A.Lyudovika, V.Aleven, I.Laren, A.Baylor, A.Freeman, S.M.Griffin, E.R.Jorgensen, S.Volters, M.Kampillo, G.Ferson, S.Karlsen va boshqalar ishlarida yoritilsa, aynan kasbiy kompetensiya tushunchasining pedagogik faoliyatdagi ahamiyati V.A.Adolf, A.S.Bazikov, S.M.Godnik, E.F.Godnik, G.A.Kozberg, A.K.Markova [12; B: 67], B.Zimmerman, J.Davidson, L.M.Mitinalar tomonidan ilmiy ishlarda yotilgani ma'lum. Bu esa, aynan bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda ularda kasbiy kompetentlik va kreativlikni rivojlantirish jarayonlari borasida ilmiy pedagogik izlanishlar olib borishni talab etadi.

Musiqa o'qituvchilarini kasbga tayyorlash E.B.Abdullin, Yu.B.Aliyeva, O.A.Apraksina, L.G.Archajnikova, B.A.Asafyev, L.A.Bezborodova, T.I.Blaginina, L.S.Vigotskiy, D.B.Kabalevskiy, D.A.Naukaz, E.V.Nikolayeva, Yukika Tsubonou, Mayumi Oie, P.Rechertson, M.Sefl ishlarida o'z aksini topgan.



Ta'lim tizimiga umuman olganda, maktablarga bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonlari nazariyasi va amaliyoti E.B.Abdullin, Yu.B.Aliyev, L.G.Archajnikov, N.N.Nemikin, J.Vings, T.Imada, P.Vebster, Y.Abramo, E.Reynolds, K.Azzara, Torrens va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilib, bu haqida bir necha adabiyotlar mavjud. B.Nazarova, S.Maxkamova, J.Yo'ldoshev, N.Muslimov^[16; B: 89], N.Usmonboyeva N.Sayid-ahmedov, G.Sultonova, R.A.Mavlonova^[13; B: 105], N.Turdiyeva, N.Fayzullayeva, M.Tilakova, lar ishlarida kompetensiya va kreativlik tushunchalari bo'yicha tahlillar mavjud.

O'qituvchi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bo'lajak pedagoglar qobiliyatlari ustida bir qator ilmiy ishlar- doktorlik dissertatsiyalari yozilgan bo'lib, L.Zaripov, U.Jumanazarov, G.Sharipova, J.Madaminov, G.Ro'ziyeva, M.Sattorova, G.Utenbayeva, O'.Sultonova, G.Norimova, L.Hayitov, G'.Nafasov, D.Qarshiyeva, S.Jumaboyev, Y.Jamilov, S.Salimova, F.Umarov, Y.Botirovlar; kreativlik jihatlarni oshirishga doir Sh.Sharipov, R.Musinova, T.Kaziyeva, F.Ehsonova, S.Yo'ldoshev, Z.Rasulova, F.Choriyev, M.Zokirova, G.Kadirova, F.Mukomova, X.Mamatova, D.Mahmudova, T.Aliboyevlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy kompetentligi va kreativligini oshirishda musiqiy-nazariy fanlar mashg'ulotlarida turli metodlardan foydalanish bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyatida darslarning noana'naviy, yuqori samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bu orqali o'rta ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarda ham dars mazmunini yaxshiroq anglash, musiqiy faoliyat turlarini o'zlashtirishga kreativ yondashuvni shakllantirib boradi. Bizga ma'lumki, "didaktika grekcha so'z bo'lib, "didasko", ya'ni "o'qitish", "o'rgatish" ma'nolarini bildiradi...Didaktika pedagogikaning "nimaga o'qitish", "nimani o'qitish" va "qanday o'qitish" kabi savollariga javob izlaydi". Shunday ekan, ayni "qanday o'qitish" tamoyili dars jarayonlariga tadbiiq etilayotgan usul va uslublarning qay darajada natija ko'rsatishi uning ertangi samarasidir. Didaktik metodistlar ta'lim metodlarini bilishga qaratilgan, o'qituvchi va o'quvchini bog'lovchi vosita sifatida qarar ekan, usiz ta'lim maqsadi, vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi deb hisoblashadi. "Metod termini yunonchadan tarjima qilinganda ma'lum maqsadga erishish yo'li, faoliyat usuli ma'nolarini anglatadi. Ta'lim metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat usullari tushuniladi"^[4; B:81].

Ko'rgazmali metodlarda asosan talabalarning eshitish va ko'rishni uyg'unlashtirib qabul qilib o'rganish samaradorligi rivojlanadi. "Ko'rgazmali usulning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchilarni undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishdan iborat" Amaliy metodlarda yozma mashqlar, laboratoriya, dastur tuzish, masalalarni yechish, topshiriqlar bajarish kabilardan foydalaniladi. Bu metodlarda nazariy bilimlar amaliy tarzda tekshirilib, faoliyatga tadbiiq etiladi. Bunday metodlardan tashqari ta'lim jarayonlarida "muammoli izlanish metodlari" dan foydalanilib, o'rganuvchilarni fikrlashga, ijodkorona yondashuvga, fanga yanada qiziqish ortishiga o'rgatadi.

"So'nggi yillarda ta'lim tizimida interfaol metodlardan keng va samarali foydalanilmoqda. Interfaol (inglizcha "inter" – birgalikda, "act" – harakat qilmoq) metodlari shaxsni har tomonlama rivojlantirish, unda mustaqil fikrlash, shaxsiy fikrini erkin bayon etish ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.. Interfaol metodlar – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlash, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar"^[10; B: 202].

Fan: Musiqaning elementlari nazariyasi

Faoliyat turi: Musiqa savodi

Taklif etilayotgan metodlar: Blits-so'rov, Tushunchalar tavsifi.

Blits-so'rov metodi – inglizchadan tarjima qilinganda "blits" tezkor, bir zumda ma'nolarini anglatib, "berilgan savollarga qisqa, aniq, lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi". Blits-so'rov metodidan musiqa nazariyasiga oid atamalar ta'riflar, ma'lum qonun – qoidalarni yanada yaxshiroq esda saqlab qolish uchun o'tkazish kerak. Blits-so'rov metodidan foydalanishda: O'qituvchi navbati bilan nazariy atama yoki qoidalar yuzasidan savol aytadi va istalgan talabaning bunga javob berishini so'raydi, talaba bunga tezkorlik bilan javob bergach, navbatdagi savol aytilib, shu yo'sinda davom etiladi. Talaba o'qituvchi tomonidan aytilgan savolni eshitganida, u o'zi bu savolga javob berishi mumkinligini his qilgan holda, beixtiyor savolga javob tayyorlaydi, bu esa barcha savollarga javob berishga intilishni keltirib chiqaradi. Bu orqali barcha talabalarning dars mavzusi yuzasidan nazariy bilimni aniqlash, talabalarning tezkorligi, aniq va lo'nda javob berishi orqali ularning musiqiy savodxonlik kompetensiyasi yanada rivojlanib boradi. Metodni qo'llashda kreativ yondashuvda nafaqat o'qituvchi, balki talabalarning bir biriga ham shundan blits-savollar berishi savol berish va javob qaytarish orqali yanada yaxshiroq natijaga erishish, bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyatida darslarda musiqa savodi faoliyat turini amalga oshirishda o'quvchilarga ham mavzular yuzasidan shunday blits-so'rovlar tashkil etish bolalarda ham musiqiy savodxonlik kompetensiyasi shakllanishi va rivojlanishiga erishish mumkin.

Fan: Garmoniya**Faoliyat turi:** Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish**Taklif etilayotgan metod:** Rotatsiya

Bugungi kunda mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor natijasi o'laroq, prezidentimiz tomonidan bu borada 02.02.2022-yilda "Madaniyat va sana't sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-112-sonli Prezident qaroriga ko'ra o'quvchilarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida 2022-2023-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga: "milliy musiqa cholg'ularida kamida bittasida ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi..., ...milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi" [1; B: 2].

Asarlar tahlil qilingach, guruhlar topshiriqlarni o'zaro almashishadi. Shu tariqa, barcha guruh berilgan asarlarni tahlil qilib, o'z fikr-mulohazalarini yozib borishadi. So'ngra, guruhlar har bir asar bo'yicha o'zlarining tahlillarini almashishadi va bir-birlarining topshiriq natijalari bilan tanishishadi. Har bir guruh o'z tahlil qaydlarini o'qituvchiga topshirib, o'qituvchi bilan birgalikda asarlarning garmonik tahlillari bo'yicha yechimlar muhokama qilinib, yo'l qo'yilgan xato – kamchiliklar borasida o'qituvchi tomonidan tuzatishlar kiritiladi. Bahsli nuqtalarda jamoalar vakillarining fikrlari tinglanib, to'g'ri javob deb tanlangan fikrlarga izoh beriladi va har bir talaba tahlillar borasida o'zlari uchun umumiy xulosalarni chiqaradilar. Metod natijasida bir darsning o'zida bir necha asarni garmonik tahlil qilish, guruhli ishlash bilan, har bir talaba faolligiga erishish, o'zaro fikr almashishni erkin yo'lga qo'yish, cholg'u ijrochiligidagi asarni garmonik tahlil qila olish, metodni tashkillashtirishda o'zgartirishlar kiritish orqali kreativ jihatlarni rivojlantirishga erishish mumkin.

Fan: Musiqa asarlari tahlili**Faoliyat turi:** Musiqa tinglash, musiqaga mos harakatlarni bajarish**Taklif etilayotgan metod:** 6x6x6.

6x6x6 – "yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchi (talaba) ni muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Ushbu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammo (masala) ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradi, yechimlarni birgalikda muhokama qiladi"

Bu metodni oliy ta'lim muassasalarining "Musiqa ta'limi" yo'nalishi bakalavrlariga o'tilayotgan "Musiqa asarlari tahlili" kursida qo'llashda:

Avval o'qituvchi talabalarni ixtiyoriy yoki tanlash orqali guruhlariga ajratib oladi. O'qituvchi tomonidan sinf talabalari sonidan kelib chiqqan holda 5x5x5 yoki boshqacha miqdorli guruhlarda ham tashkil etish mumkin. Bunda guruhlardagi talabalar soni bilan guruhlar soni bir-biriga mutanosib bo'lishi kerak;

Tahlil qilish uchun biron musiqiy asar notasi har bir guruhga bir nusxadan beriladi. Musiqiy cholg'uda asarni ijro etib berish yoki audio yozuvini tinglash maqsadga muvofiq;

Har bir guruh o'qituvchi tomonidan berilgan musiqiy asarni tahlil qiladi. Tahlil qilishda mazvu va asar mohiyatidan kelib chiqqan holda bir nechta shartlar asosida tahlilni amalga oshirish mumkin. Masalan: asar tonalligi, shakli, qismlarga ajralsa, qismlar bo'linish nuqtalari (aniq taktilar soni bilan), rivojlanish tamoyillari, bayon turlari, og'ishma, modulyasiya o'rinlari, reprizalar bo'lsa ularning turlari va boshqa jihatlari bo'yicha aniq reja asosida tahlil etish va tahlil qilinishi kerak bo'lgan belgilangan punktlarni har bir guruh fikrlari bilan to'ldirib borsa, tahlil umumiy lashtirilganda fikrlarni bildirishga qulay bo'ladi;

Tahlil qilib bo'lingandan so'ng o'qituvchi guruhlarini qayta shakllantiradi, bunda yana 6 ta guruh tuziladi (agar avval 5 ta bo'lgan bo'lsa, yana 5 ta guruh tuziladi). Har bir guruhda avvalgi guruhdan 1 tadan vakil bo'lishi shart. Shundagina, avvalgi jamoada tahlil qilingan asarni yangi jamoada 1 tadan vakillar bir biri bilan eski guruhida qanday tahlil qilganliklari xususida fikr almashishlariga imkon yaratiladi;

Yangi shakllangan guruhlarda asarlar tahlili xususida fikr almashinilib, umumiy xulosaga kelinadi. O'qituvchi asarni yana bir marotaba ijro etib yoki audio yozuvda tinglab olingach, oldinda o'ylangan punktlar bo'yicha o'qituvchi tomonidan so'rovlar amalga oshiriladi. Masalan, asar qaysi tonallikda ekanligi so'ralganda har bir jamoadan bittadan vakil guruhi tahlil qilgan variantni aytadi. Guruhlarda turlicha tahlil qilingan o'rinlar bo'lsa, o'qituvchi tomonidan aniq javob aytiladi, xatolar bo'lsa shu yo'sinda tuzatib boriladi.

Ma'lumki, har qanday pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarining birdek o'zlashtirilishiga erishib bo'lmaydi. Ushbu jihatni inobatga olgan holda, yuqoridagi mezonlar asosida musiqiy- nazariy fanlar vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi va kreativligini oshirishni ifodalovchi daraja ko'rsatkichlari aniqlandi



Yuqori daraja - kompetensiya tushunchasidan, ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, musiqa faniga oid kompetensiyalardan xabardorlar, uning ta'rifi haqida bilimlarni egalar. O'quvchilarda musiqaga oid kompetensiyalarni rivojlantirish, buning uchun pedagogda rivojlanishi kerak bo'ladigan kommunikativ kompetensiya, o'zini o'zi rivojlantirish kabi tayanch kompetensiyalarni biladilar, ularni rivojlantirib borishga harakat qiladilar.

Musiqa tahlili, musiqa tinglash, kuylash, badiiy texnik kabi musiqa faniga oid kompetensiyalar, dars faoliyat turlarida ularni samarali qo'llash bo'yicha tushunchalarga, har bir faoliyat turida zarur bo'ladigan bilimlarga egalar. O'z talabalik yillaridanoq kreativlik tushunchasi ma'nosini biladilar, har bir dars, mashg'ulotlarda o'zlarida ushbu jihatlarni rivojlantirib borishga intiladilar. Darslarni tashkil etishda, darsni olib borishda kreativlik zarurligini, darslarda bu jihatlarni qo'llash, har bir faoliyatga o'zgacha yondashuv asosida e'tibor qaratish kerakligini biladilar. Kreativlik, dars ijobiy samarasining muhim omili ekanligini tushunadilar, talabalikdan o'zida kryeativlikni rivojlantirib boradilar.

O'rta daraja - kompetensiya tushuncha, ta'rifi haqida bilimlarni egalar, biroq, musiqa faniga oid kompetensiyalardan to'liq xabardor emaslar. O'quvchilarda musiqaga oid kompetensiyalarni rivojlantirish, buning uchun pedagogda rivojlanishi kerak bo'ladigan kommunikativ kompetensiya, o'zini o'zi rivojlantirish kabi tayanch kompetensiyalarni biladilar, lekin ularni rivojlantirib borishga harakat qilmaydilar. Musiqa tahlili, musiqa tinglash, kuylash, badiiy texnik kabi musiqa faniga oid kompetensiyalar, dars faoliyat turlarida ularni samarali qo'llash bo'yicha tushunchalarga, har bir faoliyat turida zarur bo'ladigan bilimlarga to'liq ega emaslar.

Kompetensiya tushunchasidan biroz xabardor, lekin musiqa faniga oid kompetensiyalarni bilmaydilar. O'quvchilarda musiqaga oid kompetensiyalarni rivojlantirish, buning uchun pedagogda rivojlanishi kerak bo'ladigan kommunikativ kompetensiya, o'zini o'zi rivojlantirish kabi tayanch kompetensiyalarni bilmaydilar. O'z talabalik yillaridanoq kreativlik tushunchasi ma'nosini yetarli darajada bilmaydilar, har bir dars, mashg'ulotlarda o'zlarida ushbu jihatlarni rivojlantirib borishga intilmaydilar.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorlash ta'lim samaradorligini belgilab beruvchi omillardan sanalar ekan, ularning bilim, ko'nikma, malakalari, pedagogik mahoratlari, kompetensiya va kreativlik jihatlari oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim olish jarayonlaridan rivojlantirib borishni talab etadi.

Talabalar o'qituvchilardan nafaqat bilimlarni, balki, ularning pedagog mahorati, kasbiy kompetensiya va kreativliklarini o'zlashtirib boradi va bu omillar professor-o'qituvchilar dars berish jarayonida usul va uslublar, qobiliyat va ijodkorlikni yuqori darajada namoyon etishi, talabalarda ham ushbu jihatlarning rivojlanib borishiga ahamiyat berishi muhim. Ya'ni ta'lim nafaqat ta'lim va tarbiya beruvchi, balki, kompetensiya va kreativlikni oshirib boruvchi jarayon bo'lib, uning qay tarzda tashkillashtirilgani, qo'llanilayotgan metod va uslublar bunda alohida o'rin tutadi. Tadqiqot ishi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari mazkur omillarni nazarda tutgan holda reja asosida tashkillashtirildi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar orqali oshirish bo'yicha taklif etilayotgan metodlarni qo'llashda talabalardagi ijodkorlikni, qobiliyatlarni to'liqligicha namoyon etishlari, erkin fikrlashlari, har bir jarayonga bog'liq fikr-mulohazalarini ochiq bayon etishlariga imkon yaratish maqsadida, qo'llanilayotgan metod bo'yicha ularning fikrlari va g'oyalari tinglandi. Bu orqali ularda bir vaziyat yoki usulga turlicha yondashuvlarni qo'llash, kreativlik jihatlarni rivojlantirib borish, musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha bilimlarini va kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi. Talabalarni har tomonlama o'rganish, ularning kasbiy kompetensiya va kreativliklarini oshirish bo'yicha o'tkazilgan nazorat turlari va metodlari ularni uch guruhga tasniflash imkonini berdi:

- *Birinchi guruhga* kreativlik tushunchasiga ega bo'lgan va o'z faoliyatida ularni to'la namoyon etib, rivojlantirib boruvchi talabalar kiritildi;
- *Ikkinchi guruhni* bilimlari yetarlicha bo'lmagan, hamma vaqt ham ta'lim jarayonidan turli chalg'ishlar kuza-tiladigan talabalar tashkil qildi;
- *Uchinchi guruh* kreativlik tushunchasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lmagan, faoliyatlarida ularga ehtiyojni his qilmagan talabalardan iborat.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining turli mezonlar bo'yicha kreativlik haqida tushunchalarga egaliklari va ularni rivojlantirib borishga intilishlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plashda tashxis metodlaridan foydalanildi:

1. **Kuzatuv** – tajriba-sinov ishlarini boshlashdan avval tajriba va nazorat guruhlari talabalari- respondentlar pedagogik kuzatildi;
2. **Suhbat** – tajriba va nazorat guruhlari talabalari bilan olib borilayotgan tajriba-sinov ishlari bo'yicha tushunchalar berildi;
3. **Analiz** – oldindan bajarilishi kerak bo'lgan ishlar, suhbat natijalari o'rganildi;



4. **Sintez** – vazifalar va tajriba, nazorat guruhlarini kuztish, suhbat bo'yicha natijalar tahlil qilinib, xulosalar chiqarildi;
5. **Anketa** – tajriba-sinov ishlarida talabalarning kompetensiya va kreativlik bo'yicha bilimlarini aniqlab baholashga doir ishlab chiqilgan mezonlar asosida tuzilgan savollar jamlangan anketa olindi;
6. **Trening** – tajriba guruhida ilmiy tadqiqotga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, kompetensiya va kreativlik bo'yicha tushunchalar berishga oid trening o'tkazildi
7. **Topshiriq** – anketa savollariga berilgan javoblar tahlili asosida chiqarilgan xulosalar jamlanib, shu bo'yicha tajriba guruhlariga kompetensiya, kreativlik, musiqiy-nazariy fanlarga doir topshiriqlar berildi;
8. **Pedagogik eksperiment** – barcha tahlillar asosida pedagogik eksperiment o'tkazildi;
9. **Tasniflashtirish** – tajriba-sinov ishlarida talabalar bilimi, natijalari bo'yicha tasniflashtirish amalga oshirildi;
10. **Modellashtirish** – tajriba-sinov ishlarini o'tkazishdagi topshiriqlar, mashg'ulotlar natijalari modellashtirildi;
11. **Matematik-statistika** – tajriba-sinov ishlari bo'yicha matematik statistika natijalar chiqarildi.

Tajriba guruhidagi natijalar nazorat guruhidagi natijalardan yuqori ekanligini olingan natijalardan bilish mumkin. Bu bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativliklarini oshirishga doir nazorat natijalarini aniqlash bo'yicha tajriba-sinov ishlarining ijobiy samaradorligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy o'rta ta'lim musiqa madaniyati darslarining samaradorlik ko'rsatkichlari o'qituvchi va o'quvchidagi tayanch va fanga oid kompetensiyalar qay darajada egallanganligi va rivojlantirilganligi bilan uzviy aloqadorlikda bo'lar ekan, bo'lajak pedagogning ayni ushbu qobiliyatlari ustida ishlash bu asosiy vazifa sanaladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari rivojlantirilishi uning talabalik yillaridagi o'qish jarayonlari bilan birgalikda kelajak pedagogik faoliyatida ham muhim.

Bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishida muhim omillardan biri demak bu- kreativlik. Bo'lajak pedagog kreativlik jihatlari shakllantirish, oshirib borish uning talabalik yillaridanoq e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan xususiyati sanaladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kasbiy kompetensiyalarini oshirib borishida jarayonlarga kreativ yondashsa, talabani, ham kasbiy kompetensiyalari, ham kreativligini rivojlantirishga erishiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati fanidagi dars faoliyat turi-kompetensiya-kreativlik parametri - yetakchi musiqiy-nazariy fan bog'liqligi tizimlashtirilishi, pedagogda rivojlantirilgan kompetensiyalarning aynan qaysi biri biror faoliyat turida eng asosiy ekanligini, kreativlikning qaysi qirralari dars faoliyat turlaridan ko'proq qo'l kelishini aynan ushbu jihatlarning oshirib borilishida qaysi musiqiy-nazariy fan eng zaruri ekanligini yanada yaxshiroq tushunishimizga imkon yaratdi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativliklarini oshirishda musiqiy-nazariy fanlarning o'rni va ahamiyatini yaqqol anglash maqsadida taklif etilayotgan metodlar darslarning an'anaviylikdan no'an'anaviylikka tomon o'tishida, dars mashg'ulotlarida musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash, ularning mazmun-mohiyatiga ko'ra to'g'ri tanlay bilish ayni maqsadga yo'nalgan samaradorlik bera oladi degan xulosaga kelinadi. Sinov ishlari bo'yicha taklif etilayotgan metodikalar bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy kompetensiya va kreativlikka doir bilimlar bilan qurollantiradi. Bu orqali talabalarning kasbiy kompetensiya va kreativlikni oshirish bo'yicha ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirishga imkon yaratib, bu orqali musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydi. Tajriba-sinov ishlari natijalarini statistik tahlil qilish mazkur xulosaning haqqoniyligini tasdiqladi. Umuman olganda, bo'lajak musiqa o'qituvchisi ertangi kun pedagogi sifatida shakllanib borar ekan, uning zarur kasbiy kompetensiyalarni egallagan kreativ o'qituvchi bo'lib yetishishida musiqiy-nazariy fanlarning o'rni va ahamiyati yuqori ekanligi, kasbiy kompetensiya va kreativlikning bu fanlar orqali oshirib borilishi nazariyot va amaliyotda ham isbotlanganligida o'z aksini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: PQ–112-sonli qaror. – Toshkent, 2022 yil 2 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – 2020 yil 29 dekabr. – Kirish rejimi: <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
3. Абдуллина О. А. Профессионально-практическая подготовка учителя: некоторые предпосылки моделирования // Педагогическое образование для XXI века: материалы науч.-практ. конф. / под ред. В. А. Сластенина. – М.: МИП "Магистр", 1994.
4. Asqarova M. O', Xayitboyev M., Nishonov M. S. Pedagogika. – Toshkent: Talqin, 2008.



5. Axrorova M. M. Musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi rivojida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ahamiyati // Ilmiy axborotnoma. – 2024. – № 6/1 (148). – B. 153–158. – ISSN 2181-1296.
6. Axrorova M. M. Musiqa ta'limi kontekstida kasbiy kompetensiyani shakllantirish tasniflari // Oriental Art and Culture: Scientific Methodical Journal. – 2024. – Vol. 5, Issue 6. – B. 99–105. – ISSN 2181-063X.
7. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1968.
8. Guilford J. P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – № 5.
9. Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2011.
10. Inoyatov U. I., Muslimov N. A., Ro'ziyeva D. N., Usmonboyeva M. H. Pedagogika. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016.
11. Макаренко А. С. Педагогические сочинения: в 8 т. – М.: Прогресс, 1983–1986.
12. Маркова А. К. Психология профессионализма. – М., 1996.
13. Mavlonova R., Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
14. Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent: Muharrir, 2010.
15. Muslimov N. A. va boshq. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
16. Слостенин В. А., Подымова Л. С. Педагогика: инновационная деятельность. – М.: НЧП “Издательство Магистр”, 1997.
17. Utanov U. Q., Urinova S. Sh. The role of creative aspects in the work of future music teachers // World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Vol. 9. – Berlin (Germany). – ISSN (E) 2749-361X.
18. Urinova S. Sh. Music theoretical sciences in developing creativity of future music teachers // International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – 13 April.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.